

**AGIOMATNLAR TARJIMASIGA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING  
IFODALANISHI**

*O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti*

*Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi*

***Egamberanova Dilafruz Baxtiyorovna***

**Annotatsiya:** Oxirgi yillarda barcha sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda aksiologik yondashuv asosiy ilmiy nazariya sifatida yetakchilik qilmoqda. Mazkur yondashuv nafaqat, falsafa yoki qadriyatshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar, balki fizika, kimyo, matematika, informatika, tarix, dinshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va tarjimashunoslikda ham muhim nazariya sifatida maydonga chiqdi. Mazkur paragrafda agiografik terminlarning tarjimasida aksiologik yondashuvning zarurati va ahamiyatiga doir masalalarga to'xtalishdan oldin, uning leksikografik ta'rifi hamda mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olishni joiz topdik.

**Kalit so'zlar:** aksikologiya, agiografik termin, ilmiylik, fenomen, e'tiqod, qadriyat, aksiologik dominant, tadqiqot, ksenolaliya

**Аннотация:** В последние годы аксиологический подход становится ведущей научной теорией во всех областях научных исследований. Этот подход выступает как важная теория не только в философии и аксиологии, но и в таких дисциплинах, как физика, химия, математика, информатика, история, религиоведение, лингвокультурология, литературоведение, искусствоведение и переводоведение. В данном параграфе, прежде чем перейти к вопросам необходимости и значимости аксиологического подхода при переводе агиографических терминов, мы сочли целесообразным уточнить его лексикографическое определение и сущность.

**Ключевые слова:** аксиология, агиографический термин, научность, феномен, вера, ценность, аксиологическая доминанта, исследование, ксенолалия



**Annotation:** *In recent years, the axiological approach has emerged as a leading scientific theory in research across all fields. This approach has become a significant theory not only in philosophy and axiology but also in disciplines such as physics, chemistry, mathematics, computer science, history, religious studies, linguoculturology, literary studies, art studies, and translation studies. In this paragraph, before addressing the necessity and significance of the axiological approach in translating hagiographic terms, we found it appropriate to clarify its lexicographic definition and essential meaning.*

**Keywords:** *axiology, hagiographic term, scientific nature, phenomenon, belief, value, axiological dominant, research, xenolalia*

**Kirish qism:** AKSIOLOGIYA (yun. Axia - qimmat, qadr va logos-ta'limot)-qadriyatlar to'g'risidagi fan degan ma'noni anglatadi.

“Aksiologiya” ning ta'rifi, qo'llanilishi va sohalararo kesishuv masalalari zamonaviy lingvistika uchun ahamiyatli bo'lgani holda, mazkur fenomenning mazmun-mohiyatiga doir izlanishlarning ildizi antik davrga borib taqaladi. Faylasuflar o'z ishlarida mazkur fenomen va unga yondosh tushunchalar, aksiosfera, aksiokonsept, aksiologik yondashuv, aksiologik dominant, antropologik paradigma kabi bir qator masalalarni yoritganlar. XIX asrning 60 yillarida nemis faylasufi G. Lotse ilk bor mazkur fenomenga baholash me'zoni sifatida yondashadi. E. Fon Gartmann tomonidan falsafaning bir yo'nalishi sifatida talqin qilingan “aksiologiya” terminini fransuz faylasufi P. Lapi ilk bor ilmiy muomalaga kiritadi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib mazkur yo'nalishda turli xil tadqiqotlar maydonga keldi. XX asrning oxirlariga kelib, ijtimoiy sohalar, aniqrog'i sosiologiyada ham mazkur mavzu doirasida ilmiy munozaralar avj oldi.

**Asosiy qism:** Aksiologiya sosiologiyada qadriyatshunoslik ya'ni, qadriyat bilan bog'liq masalalar, jamiyatda inson xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini bevosita belgilaydigan mexanizm sifatida talqin qilindi. Lingvomadaniyatshunoslik hamda sosiolingvistika yo'nalishida ham madaniyat va qadriyat, aksiologik komponentlar, aksiosfera, aksiologik konseptlar, aksiologik strategiya kabi bir qancha



masalalar atrofida tadqiqotlar olib borildi. Mazkur tadqiqotlar natijasida va zamonaviy yondashuvlar asosida yirik fundamental ishlar yaratildi hamda bu tadqiqotlar turli xil rakurslarda amalga oshirildi.

Agiografik tadqiqotlarni tarjimashunoslik nuqtai nazaridan o'rganish mazkur yo'nalishga xos bo'lgan so'zlarning diniy matnlardan boshqa, ya'ni badiiy, siyosiy, ijtimoiy hamda psixologik yo'nalishdagi matnlarda ham uchrashi mumkinligini namoyon etadi. Har qanday termin o'z yo'nalishidan tashqari maydonda

qo'llanilganda ma'lum bir semantik xususiyatlarini o'zgartiradi. Mazkur hodisa agiografiyaga oid terminlarni qayta ko'rib chiqib, aynan qanday so'zlar agio-terminlarga tegishli bo'la olishi masalasini oldimizga qo'yadi. Xususan badiiy matnlarda agiografik terminlarni aniqlash, ularning berilishi bilan bog'liq muammolarni ham o'rganib chiqishni taqozo etadi. Tadqiqot jarayonida agiografik matnlarni tahlil etish va ularning ma'nosini ochib berishda turli yondashuvlar mavjudligi aniqlandi.

Jumladan, Bolonya universiteti tadqiqodchisi M.Marko buyuk insonlar hayotiga bag'ishlab yozilgan asarlar va ularda berilgan noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlash jarayonida agiografik asarlarni tahlil etib o'tgan. Uning fikricha, agiografik matnlar ham asosan aniq bo'lmagan manbalar asosida yoziluvchi badiiy asarlar turiga kiradi. Badiiy biografiyaning ko'p va xilma-xil shakllar taksonomiyasi o'ziga xos biografiya poetikasining tavsifi va uning adabiy masalalarini hamda adabiyot<sup>1</sup>dan tashqari (tarixiy, sosiologik, falsafiy va hatto siyosiy) ta'sirlarni tahlil qiladi. Uning epistemologik mazmunini voqelikning izohlovchi kategoriyasi sifatida baholash mumkin. Insonning mavjudligini hikoya qilish usuli asrlar davomida madaniy sharoit va yozuv uslublariga, ikkinchidan individuallikka berilgan e'tiborga qarab o'zgarib kelgan. Ushbu mezonlarning xilma-xilligi "Hayot", "Afsona", "Agiografiya", "Maqto'v", "Portret" nomlari ostida joylashgan matnli ob'yektlarni tashkil etadi va biografik nutqning turli xil usullari bilan bog'langan. Bu usullar quyidagi uchta turga bo'linadi: epidiktik, tarixiy va adabiy. Ushbu janrlarning barchasi qadimgi parabioografiyaning belgisidir, ammo axloqiy asosda ifodalanishi nasroniy

---

<sup>1</sup> Mongelli Marco. *Narrer une vie, dire la vérité : la biofiction contemporaine.* – Paris, 2019. – 450 p





adabiyotining martirologiyalari, afsonalari va agiografiyalari, O'rta asrlarda taniqli insonlar hayotining butun an'analarida ham aks etgan. Uyg'onish davriga oid matn tipologiyalarida shaxsning hayoti o'z-o'zidan kuchga ega emas, balki "parenetik misol" o'rnini egallaydi, boshqacha aytganda umumiy fazilatlarning kollektiv modeli sifatida namoyon bo'ladi. Estetik nuqtai nazardan an'anaviy biografik shakllarning agiografiyasi va tarixiy shaxs hayotining qayta tiklanishi, hattoki, boshqa adabiy shakllar (ayniqsa, teatr, kino, fotografiya, chizma, radio) dan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlash joizdir.

Faylasuf olim Alessandro Pozzo agiografik matnlardagi ilohiylashtirish masalalariga falsafiy jihatdan yondashib, ulardagi mo'jizalarning ifodalanishini "ksenolaliya" deb nomlaydi. Ksenolaliya so'zi (ksenoglossia bilan sinonim) ikki yunoncha so'zdan iborat bo'lib, ksenos, "begona" va laleo, "aralashtirib gapirish", degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha tilda hali to'liq o'rganilmagan mo'jizaviy voqea-hodisalarni bildiradi. Insonlarni ijobiy ruhlantiruvchi agiografiya - bu o'ziga xos kompozisiya qoidalariga ega bo'lgan adabiy janr. Ksenolaliya esa, mo'jizaviy ifoda bo'lib, tilda ilgari noma'lum bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu hodisa <sup>2</sup>olimlar tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan, biroq to'liq o'rganilmagan.

A.Pozzo mulohazalariga ko'ra, ksenolaliyaning lingvistik xususiyatlari o'rganilmasligi agiomatnlarning ta'sir kuchini pasaytiradi.<sup>3</sup>

A.L. Meril Bellini g'arb agiografiyasi normalari va qonuniyatlari haqida yozar ekan, mazkur manbalarda berilgan ko'plab muloqot shakllarining gender xususiyatlarni ham mavjudligini ta'kidlab, agiografik birliklar ko'proq erkaklar nutqiga xosligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>. Shuningdek, mazkur tadqiqotda agiografiyaga tegishli so'zlarni tahlil qilishda etimologik tahlilga alohida ahamiyat berish kerakligi qayd etilgan. Avliyolar hayoti va faoliyatidan so'zlovchi asarlardagi ba'zi jumlar xalqlarning ijtimoiy hayot tarzi qonuniyatlari aylanib borishi va shu jihatdan chuqur tahlil etilishi yoritib o'tilgan.

<sup>2</sup> Mongelli Marco. *Narrer une vie, dire la vérité : la biofiction contemporaine*. – Paris, 2019. – 450 p.

<sup>3</sup> Alessandra Pozzo. *Le pouvoir des mots au Moyen Âge*. – Turnhout, 2014. – P.16

<sup>4</sup> Anne-Laure Mériel-Bellini delle Stelle: Rezension von: Marie-Céline Isaïa / Thomas Granier: Normes et hagiographie dans l'Occident latin (Ve - XVIe siècle). Lyon, 2010. [URL: http://www.sehepunkte.de/2015/03/25475.html](http://www.sehepunkte.de/2015/03/25475.html)



Islom agiografiyasida muhim ahamiyat kasb etgan tariqat, shariat, haqiqat hamda ma'rifat kabi tushunchalar borki, ular bugungi kunga kelib inson ma'naviy-ruhiy kamolotining asosiy me'zonlari hisoblanadi. A.L. Meril Bellini ham aynan shunday so'zlar tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini aytib o'tadi. Diniy matnlarda qo'llaniladigan agiografik so'zlar shu sohaga oid terminologik asosni to'ldirib boradi. Agiografik asarlar orqali kirib kelgan so'zlar va diniy-tarixiy asarlarga xos so'zlar o'rtasidagi farqli hamda o'xshash jihatlarni aniqlash mazkur so'zlarning matndagi mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Biroq, har ikki turga xos bo'lgan so'zlarni bir-biridan keskin farqlab bo'lmaydi, har ikkisi ham xalqlarning e'tiqodini va diniy qarashlarini ifodalaydi. Agiografik matnlarda foydalanilgan so'zlarni terminologiya qonuniyatlari asosida tadqiq etish turli matnlarda, xususan badiiy matnlarda beriladigan mazkur so'zlarning ilmiy asoslarini yoritish, sharhlash va ularning adekvat tarjimasiga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Agiografik terminlarning lingvokognitiv va lingvokulturologik tahlili, ushbu tushunchalarning xalq ongidagi tasavvurini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida agio-terminlarning badiiy matndagi kontekstual ma'nosi hamda etimologiyasini qiyosiy tahlil etishni taqozo etadi.

Florence Windmüller (Florans Vindmyuller) xorijiy tillarni o'rgatishning lingvokulturologik masalalarini pedagogika nuqtai nazaridan o'rganish jarayonida "til va madaniyat" mavzusi tarkibiga kiruvchi leksik birliklarni batafsil sanab o'tadi<sup>5</sup>. Tadqiqot davomida maqol, matal, ibora va shu kabi nutq birliklarini til o'rganish jarayonida birgalikda tahlil etib borish lozimligini uqtiradi hamda ularni agiografik manbalar tarkibiga kiritadi. F.Vindmyullerning fikriga ko'ra, til tarkibiga kiruvchi hamda so'zlovchining madaniyatini o'zida ifodalovchi jumlarlar xalqning e'tiqodlari bilan bog'liq, shuning uchun ham ularni agiografik manbalarga xos so'zlar sifatida talqin qilish mumkin. Olima fikr-mulohazalarini quyidagi misol orqali izohlaydi :

“Les allusions et les connotations s'inscrivent dans une trame infinie de références culturelles partagées par les membres d'un même groupe culturel.

<sup>5</sup> Florence Windmüller. «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leurre ou réalité ? : <http://nbn-resolving.de/urn:nbn:de:hebis:26-opus-116421>. 2015.



L'assertion suivante, par exemple, « Et bien, si demain vendredi nous sommes le 1er avril, ce sera bel et bien le jour du poisson ! » exige la connaissance de la coutume populaire du locuteur et de son destinataire pour être compréhensible. Chaque collectivité est ainsi en possession d'un ensemble de mots, de proverbes, de vers, etc. qui constituent les références hagiographiques de la culture implicite<sup>6</sup>». Demak, muloqot jarayonida foydalaniladigan ishora va qo'shimcha sharhlovchi vositalar keng qamrovli madaniyatning bir qismini tashkil etadi. Masalan, "ertaga 1 aprel –baliq kuni" jumlasida o'zida xalqning uzoq yillik turmush tarzi va e'tiqodini aks ettiradi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning tushunarli hamda samarali bo'lishi, madaniy bilimlarning mustahkam bo'lishini talab etadi. Maqol, she'r va diniy oyatlar ichki agiografik ma'lumotlar tarkibiga kiradi.

Rus olimasi N.Yu. Bikeyeva g'arb olimlarining agiografik matn va ulardagi terminlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarini o'rganib, agiografiyada tarixiylik yoki ilmiylikdan ko'ra ko'proq badiiy xususiyat mavjudligini ta'kidlaydi<sup>7</sup>. U o'zining « Azizlar haqidagi afsonalar » asarida qayd etishicha, Ippopit Delee avliyolarning hayotini « epik » va « tarixiy » turlarga bo'lib, ularni "agiografiya" va "tarixshunoslik" tushunchalaridan farqlashni taklif qildi. Agiografiya tarixni xronik tarzda ifodalashni yoqlamaydi, shuning uchun bunday manbalarga yondashish yilnomalar va tarixga yondashishdan farq qilishi kerak. Shuning uchun tarix ilmi agiografik tushunchalar : xurofot", "folklor", "ommabop e'tiqod" va avliyolar yoki mo'jizalar haqida yozilgan manbalarni inkor etgan. Avliyolarning hayoti, shahidlarning kechinmalari, mo'jizalar haqidagi hikoyalar, vahiylar, yodgorliklarni haqidagi hikoyalar agiografiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotchi olim Kristel Rue-Delaryu (Christelle Rouet-Delarue) tarixshunoslar nutqining kognitiv xususiyatlarini o'rgangan va agiografik terminlar shakllanishiga alohida to'xtalib o'tgan.<sup>8</sup>Olim agiografik matnlarga xos so'zlarning

<sup>6</sup> Florence Windmüller. «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leurre ou réalité ? : <http://nbn-resolving.de/urn:nbn:de:hebis:26-opus-116421>. 2015.

<sup>7</sup> Бикеева Н. Ю. Средневековые жития святых между историей и историографией. /Диалог со временем 65. – Москва, 2018. 432 с.

<sup>8</sup> Christelle Rouet-Delarue. Analyse linguistique du discours historien: des sources au genre historique? Linguistique. Université Michel de Montaigne-Bordeaux, 2014. – 446 p.





mohiyatiga chuqur kirib borish uchun korpus tahlil qilish lozimligini ta’kidlaydi. Bu esa o‘z navbatida, agioterminlarning adekvat tarjimasi va mohiyatining yetarlicha yoritilishiga xizmat qiladi

Fransuz tarjimashunos olimasi Karolin Filippart agiografik asarlar tarjimasining qonuniyatlarini aniqlab, ularga leksik, grammatik va semantik nuqtai nazardan yondashadi.<sup>9</sup>

Tadqiqot ob’yekti bo‘lgan agiografik matnlar tarjimasi zamonaviy matematik lingvistika qoidalari asosida qiyoslangan va statistik hisoblash orqali bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib borilgan agiografik matnlarning o‘zgarib borish dinamikasini ishlab chiqqan. Bunda lotin tilidan tarjima qilinadigan asarlarning tarixiy bosqichlari ham inobatga olingan. Uning ta’kidlashicha, agiografik janrdagi asarlar O‘rta asrlarning eng boy adabiy merosi hisoblangan. Asrlar davomida xristian dinining lotin korpusi yangi matnlarning kiritilishi, eskirganlarini qayta yozish va moslashtirish, shuningdek, matnlarni tarjima qilish orqali boyitildi. Shuningdek, Karolin Filippartning fikriga ko‘ra G‘arbda agiografik qayta yozish hodisasi mavjud bo‘lib, Monike Goulet (2005 yilda) tomonidan mukammal sintez qilingan bo‘lsada, bu sohada tarjima qilish amaliyoti yetarlicha o‘rganilmagan deb hisoblanadi. Biroq, Vizantiya dunyosidan Lotin dunyosiga tarjima orqali kirib kelgan ko‘plab agiografik matnlar mavjud. Ushbu tarjimalarning eng qadimgi va eng mashhurlaridan biri Antaniyaning “Antuan hayoti” asari birinchi marta tarjima qilingan sanasi aniq emas, ikkinchi tarjima 357 yilda Avliyo Jeromning do‘sti Antioxiya Yevagri tomonidan tarjima qilingan. Sharq shahidlari, “Otalar hayoti” va tavba qilganlarning kechinmalari VI asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjima faoliyati turli darajadagi muvaffaqiyatlar bilan davom etgan va Rim va Neapol tarjimonlari (9-10-chi) faoliyati natijasida rivojlanib borgan.

K. Filippartning fikriga ko‘ra, asosiy qiyinchilik adabiy an’analarning mobil xarakterida yotadi, bu esa tarjimalarni aniqlash va matn o‘rganilishini jiddiy ravishda qiyinlashtiradi. Chunki tarjima qilingan matnlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri lotin tilida yozilganidek ishlatilgan. Shuning uchun tarjimalarni aniqlik bilan belgilash, tarjima

<sup>9</sup> Caroline Philippart, « La traduction dans le domaine hagiographique médiolatin : l’apport de la linguistique quantitative », URL : <http://journals.openedition.org/rursus/1285>



qilingan matnni tarjima qilinmagan matndan ajratish, hattoki lotincha versiyasi uchun namuna bo'lgan yunoncha matnni topish ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Tadqiqotchi, tarjima subkorpusida kuzatiladigan xususiyatlar barcha tarjimalarda mavjudmi yoki ba'zi matnlarning o'ziga xos foydalanish usuli mavjudmi, degan savolni qo'ygan. Faktor tahlillari grammatik kategoriyalarni taqsimlab o'rganishning yaxshi usuli hisoblanadi, chunki u bir vaqtning o'zida matndagi o'zgarishlarni hisobga olishi va o'rganilgan matnlarda tahlil omillari sifatida saqlanib qolgan parametrlar assotsiatsiyasini ko'rsatishi mumkin.

O'zbek olimlari tadqiqotlari bilan tanishish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarning aksariyati agiografik terminlar emas, balki shu guruhga kiradigan asosiy istilohlar, ya'ni diniy terminlarning tarjimasiga qaratilganligining shohidi bo'ldik.

Masalan, Sh.R. Amanturdiyeva o'zbek tilidagi diniy matnlarning funksional-stilistik tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishida asosan, diniy matnlarda til birliklari berilishi lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlagan, o'zbek tili funksional uslublari tizimida diniy uslubning mavjudligini asoslagan, shuningdek, o'zbekcha diniy matnlarni funksional-stilistik yo'nalishda o'rganib ularga vazifaviy-uslubiy jihatdan munosabat bildirgan.<sup>10</sup> Mazkur tadqiqot qiyosiy aspektda olib borilmagan bo'lsada, unda tadqiqotchi tomonidan diniy matnlarda qo'llanilgan so'zlarning leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratilganligi bizning tadqiqotimizda ham agiografik terminlarni guruhlashtirishda

o'zining samarali natijasini berdi. Shoiramanturdiyeva diniy matnlarni quyidagi guruhlariga ajratgan:

- Alloh, din, mazhab kabi tushunchalar bilan bog'liq so'zlar: Alloh, allayhissalom, anbiyo;
- shariat bilan bog'liq so'zlar: azon, valiy, zohid, imom;
- diniy ijtimoiy nufuz, mansab, bajariladigan amallar bilan bog'liq so'zlar: avliyo, valiy, zohid, imom;

<sup>10</sup> Amanturdiyeva Sh.R. O'zbek tili matnining funksional-stilistik tadqiqi. Filol.fan.bo'yicha falsafa.dok (PhD). diss... avtoref. – Samarqand, 2020. –B .14-15.





- diniy joy nomlarini ifodalovchi soʻzlar: Gʻaytul haram, Baytulloh;
- diniy kitoblar, qogʻoz bilan bogʻliq soʻzlar: Zabur, Injil, nomaʼi aʼmol, oyat, sura;
- kiyim-kechaklarni ifodalovchi soʻzlar: joma, salla;
- gʻayb dunyosini ifodalovchi soʻzlar: arosat, arsh;
- gʻayb mavjudotlarini bildiruvchi soʻzlar: Azozil, Azroil;
- diniy marosimlarni ifodalovchi soʻzlar: mavlud, aqiqa.
- His-tuygʻu, munosabat ifodalovchi soʻzlar: Allohu akbar, alhamdulillah, astagʻfirilloh.

Shoxista Sultonova muqaddas matnlarda zamon tushunchasining talqini, uning turli til birliklaridan voqealanishini yoritib bergan.<sup>11</sup>

**Xulosa:** Aslida, diniy atamalar agiografik terminlar tarkibiga kiradi, chunki muqaddas joy nomlari, muqaddas insonlar, avliyolar va ularning hayoti va yashash sharoitlariga aloqador barcha leksemalarni qamrab oladi. Mazkur istilohlar qaysi dinga tegishli boʻlishidan qatʼiy nazar, agiografik terminlar tarkibiga kirib ketadi. Shu sababli biz, tadqiqot doirasida agiografik terminlarning oʻzbekcha-fransuzcha tarjima lugʻatining nazariy-amaliy natijalarini ishlab chiqishda yuqoridagi tadqiqotdan unumli foydalandik. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlarini oʻrgangan.

Mazkur tadqiqotda muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining talqini, uning lingvomadaniy xususiyatlarining temporal soʻzlar, frazeologik birliklar, maqol va matallarda ifodalanishi ikki til materiallari asosida ochib berilgan. Qurʼoni Karim va Injildagi zamon togʻrisidagi taʼlimotlar lisoniy falsafiy jihatdan talqin qilingan.

Maqolamizda muqaddas matnlardagi zamon kategoriyasining quyidagi nazariy asoslari ishlab chiqilgan:

- 1) zamonning mohiyatini ochib beruvchi umumiylik va muqaddaslik;
- 2) muqaddas matnga xoslik;
- 3) antroposentrik omil;

<sup>11</sup>Sultonova Sh.M. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari. Filo.fan.boʻyicha.falsaf.dok (PhD) diss... avtoref. –Fargʻona, 2018.



4) zamon kategoriyasining lisoniy voqealanishi.

Sh. Sultonova muqaddas matnlardagi zamon kategoriyasining xalq ongi va madaniyatida qay darajada aks etishini aniqlash jarayonida musulmon hamda xristian xalqlari madaniyatiga xos diniy bayramlar, an'analar, marosimlar va amallarni muqaddas zamon modelini til va madaniyatda maqol, matal va iboralar vositasida uyg'unlashuvini asoslab, leksik-semantik, komponent hamda lingvomadaniy tahlil orqali isbotlab beradi.

Agiomatnlar tarkibida keluvchi agiografik terminlar va ular bilan bog'liq milliy-madaniy axborotlarni tarjimada to'laqonli yaratilishi tarjima adekvatligini ta'minlaydi. Olimlar islom agiografiyasida mavjud leksemalar, ya'ni tariqat, shariat, ma'rifat, haqiqat kabilarni inson ma'naviy, madaniy va ruhiy kamolotini belgilovchi mezon deb ko'rsatadilar. Musulmon va xristian madaniyatiga xos diniy marosimlar, urf-odatlar, an'analarning agiomatnlar tarkibida kelishi ular tahliliga lingvomadaniy aspektda yondashishni talab etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alessandra Pozzo. Le pouvoir des mots au Moyen Âge. – Turnhout, 2014. – P.16
2. Amanturdiyeva Sh.R. O 'zbek tili matnining funksional-stilistik tadqiqi. Filol.fan.bo 'yicha falsafa.dok (PhD). diss... avtoref. –Samarqand, 2020. –B .14-15.
3. Anne-Laure Mériel-Bellini delle Stelle: Rezension von: Marie-Céline Isaïa / Thomas Granier: Normes et hagiographie dans l'Occident latin (Ve - XVIe siècle). Lyon, 2010.  
[URL:http://www.sehepunkte.de/2015/03/25475.html](http://www.sehepunkte.de/2015/03/25475.html)
4. Caroline Philippart, « La traduction dans le domaine hagiographique médiolatin : l'apport de la linguistique quantitative», URL :  
<http://journals.openedition.org/rursus/1285>
5. Christelle Rouet-Delarue. Analyse linguistique du discours historien: des sources au genre historique? Linguistique. Université Michel de Montaigne-Bordeaux, 2014. – 446 p.
6. Florence Windmüller. «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leurre ou réalité ?. : <http://nbn-resolving.de/urn:nbn:de:hebis:26-opus-116421>. 2015.



7. Mongelli Marco. Narrer une vie, dire la vérité : la biofiction contemporaine. – Paris, 2019. – 450 p
8. Sultonova Sh.M. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari. Filo.fan.bo 'yicha.falsaf.dok (PhD) diss... avtoref. –Farg 'ona, 2018.
9. Бикеева Н. Ю. Средневековые жития святых между историей и историографией. /Диалог со временем 65. – Москва, 2018. 432 с.